

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TURKISTONDA ROSSIYA BANK KAPITALINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHI: VOSITACHILIKDAN MUSTAMLAKA NAZORATIGACHA (1870–1917)

Abdullayeva Nilufar Rustam qizi

Namangan davlat universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: abdullayevanilufar513@gmail.com .ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-7362-7190>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi davrida Turkiston o'lkasida bank tizimining institutsional evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot Moskva Xalqaro Savdo Bankining Qo'qon filiali bo'yicha 1897-yilgi yillik hisobot, hamda 1908–1917-yillar oralig'idagi kredit, sud va kredit kooperatsiyasi statistikasi asosida olib borilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bank tizimi vositachilik bosqichidan monopolistik nazorat bosqichiga o'tgan, xususi bank kapitali davlat bankidan besh baravar ko'p kredit bergan va uning katta qismi paxta sanoatiga yo'naltirilgan, kredit kooperatsiyasi esa Farg'ona vodiysida davlat siyosati orqali ongli ravishda cheklangan. Bu cheklanish natijasida rasmiy bank tizimidan tashqarida ulkan norasmiy kredit bozori shakllangan. Xulosa qilinadiki, Turkiston bank tizimi mustaqil iqtisodiy mantiqqa emas, balki mustamlaka boshqaruvining strategik maqsadlariga bo'ysungan holda rivojlangan.

Kalit so'zlar: Turkiston, mustamlaka iqtisodiyoti, bank tizimi, Rossiya imperiyasi, kredit kooperatsiyasi, paxtachilik, xususi bank kapitali, sudxo'rlik, institutsional tarix.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ЭВОЛЮЦИЯ РОССИЙСКОГО БАНКОВСКОГО КАПИТАЛА В ТУРКЕСТАНЕ: ОТ ПОСРЕДНИЧЕСТВА К КОЛОНИАЛЬНОМУ КОНТРОЛЮ (1870–1917)

Абдуллаева Нилуфар Рустам кизи

Наманганский государственный университет, базовый докторант.

Аннотация.

В статье анализируется институциональная эволюция банковской системы в Туркестане в период Российской империи. Исследование основано на годовом отчете Кокандского отделения Московского международного торгового банка за 1897 год, а также на кредитной, судебной статистике и статистике кредитной кооперации за 1908–1917 годы. Результаты показывают, что банковская система перешла от посреднического этапа к этапу монополистического контроля, частный банковский капитал предоставлял в пять раз больше кредитов, чем государственный банк, причем основная часть направлялась в хлопковую отрасль, а кредитная кооперация в Ферганской долине была сознательно ограничена государственной политикой. Это ограничение привело к формированию обширного неформального кредитного рынка за пределами официальной банковской системы. Делается вывод, что банковская система Туркестана развивалась не по логике самостоятельного экономического развития, а подчиняясь стратегическим целям колониального управления.

Ключевые слова: Туркестан, колониальная экономика, банковская система, Российская империя, кредитная кооперация, хлопководство, частный банковский капитал, ростовщичество, институциональная история.

INSTITUTIONAL EVOLUTION OF RUSSIAN BANK CAPITAL IN TURKESTAN: FROM MEDIATION TO COLONIAL CONTROL (1870–1917)

Abdullayeva Nilufar Rustam qizi

Namangan State University, Basic Doctoral Student.

Abstract.

This article analyzes the institutional evolution of the banking system in Turkestan during the period of the Russian Empire. The study is based on the 1897 annual report of the Kokand branch of the Moscow International Trade Bank, as well as credit, court, and credit-cooperative statistics from 1908–1917. The findings show that the banking system moved from a mediating stage to a stage of monopolistic control, with private bank capital extending five times more credit than the state bank and directing most of it toward the cotton industry, while credit cooperatives were deliberately restricted through state policy in the Fergana Valley. This restriction led to the emergence of a large informal credit market outside the official banking system. The article concludes that the banking

system in Turkestan developed not according to independent economic logic, but in subordination to the strategic goals of colonial administration.

Keywords: Turkestan, colonial economy, banking system, Russian Empire, credit cooperation, cotton growing, private bank capital, usury, institutional history.

Kirish. Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, Turkiston o'lkasida bank tizimining shakllanishi mustamlaka iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan. Moskva Xalqaro Savdo Bankining Qo'qon filiali kabi mahalliy bank muassasalari, bir tomondan, mintaqadagi savdo-sanoat kapitalining aylanishini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bank tizimining umumiy institutsional tuzilishi metropoliya manfaatlariga xizmat qiladigan tarzda shakllantirilgan.

Turkiston bank tarixini o'rganish, birinchi navbatda, mintaqaviy iqtisodiy tarixning ikkilamchi xarakterini, ya'ni mahalliy iqtisodiyot va imperiya moliyaviy tizimi o'rtasidagi asimmetrik munosabatni tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkistonda paxta yakkahokimligining jadal rivojlanishi bank kapitalining mintaqaga kirib kelishini tezlashtirgan, biroq bu jarayon mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlaridan ko'ra, Rossiya to'qimachilik sanoatining xomashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lgan. Shu sababli bank tizimining institutsional rivojlanishini tahlil qilish mustamlaka iqtisodiyotining chuqurroq mexanizmlari bo'lgan kapitalning kimga va qanday shartlar asosida yo'naltirilganini ochib berishga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mavjud tarixshunoslikda bank tizimi ko'pincha alohida moliyaviy institut sifatida, mustamlaka boshqaruvining kengroq strategiyasidan ajratilgan holda o'rganilgan. Aslida esa, quyida ko'rsatilganidek, bank kapitalining tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlanishi, kredit kooperatsiyasiga nisbatan davlat siyosati va norasmiy kredit bozorining kengayishi kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan yagona institutsional tizimning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Turkistondagi bank tizimining ikki bosqichli rivojlanishini (vositachilikdan monopolistik nazoratga o'tish), xususiy bank kapitalining tarmoqlar va geografik hududlar bo'yicha taqsimlanishini hamda kredit kooperatsiyasi tizimining davlat siyosati tomonidan sun'iy cheklanishi mexanizmini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot savoli quyidagicha shakllantiriladi: bank kapitalining institutsional tuzilishi va davlat siyosati Turkiston iqtisodiyotini qanday tarzda metropoliya manfaatlariga bo'ysundirgan? Ushbu savolga javob berish uchun ishning quyidagi qismlarida avval bank tizimini tashkil etuvchi asosiy elementlar (filial darajasidagi operatsiyalar, davlat va xususiy bank tarmoqlari, xalqaro kapitalga bog'liqlik, kredit kooperatsiyasi) alohida-alohida ko'rib chiqiladi, so'ngra ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik umimlashtiriladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot arxiv hujjatlari va statistik hisobotlarga asoslangan. Asosiy manba sifatida Moskva Xalqaro Savdo Bankining Qo'qon filiali bo'yicha 1897-yilgi yillik hisobot (veksel, qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho metallar va joriy xarajatlar bo'yicha ma'lumotlar), shuningdek, 1908–1917-yillar oralig'idagi kredit statistikasi, sud statistikasi va kredit kooperatsiyasi bo'yicha rasmiy hujjatlar qo'llanilgan.

Tahlil metodi sifatida miqdoriy-statistik taqqoslash usuli qo'llanilgan: davlat banki va xususiy banklar krediti nisbati, hududlar bo'yicha kredit hamkorliklari taqsimoti hamda rasmiy va norasmiy kredit bozorlari hajmi bir-biriga qiyoslangan. Bundan tashqari, institutsional tahlil metodi orqali davlat siyosatining rasmiy asoslari (rasmiy sirkulyarlar) va ularning yashirin iqtisodiy-mafkuraviy sabablari ajratib ko'rsatilgan.

NATIJALAR

Qo'qon filialining 1897-yilgi hisobotiga ko'ra, veksel va inkasso operatsiyalari filial faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lgan: yil davomida inkasso uchun qabul qilingan veksellar summasi 1 775 528 rubl 66 kopeekka, to'langan va qaytarilgan veksellar hajmi esa 1 970 147 rubl 60 kopeekka yetgan. Qimmatli qog'ozlar operatsiyalaridan 72 rubl 01 kopeek, qimmatbaho metallar (oltin-kumush) operatsiyalaridan esa 136 rubl 97 kopeek foyda olingan — bu ikkinchi darajali daromad manbalari sifatida baholanadi. Filialning joriy xarajatlari 15 828 rubl 17 kopeekni tashkil etib, ularning tarkibida pochta (97 rubl 25 kopeek) va telegraf (117 rubl 20 kopeek) xarajatlari alohida ajralib turadi [1], bu esa filialning imperiyaning boshqa moliyaviy markazlari bilan muntazam aloqada bo'lganini ko'rsatadi.

1912-yil noyabr holatiga ko'ra, aholining davlat bankiga qarzdorligi 27,5 million rublni, xususiy banklarga esa 129,2 million rublni tashkil etgan, bu deyarli besh baravar farq davlat va xususiy bank tarmoqlari o'rtasidagi funksional taqsimotni namoyon etadi: davlat banki rasmiy mavjudlikni, xususiy banklar esa real iqtisodiy nazoratni ta'minlagan. Farg'ona vodiysi ushbu qarzdorlikning 51 foizini (80,3 million rubl) tashkil etgan [2].

Buxoro shahridagi yettita xususiy bank filialining tahlili shuni ko'rsatadiki, «Rus tashqi savdo banki» va «Sibir savdo banki» nemis kapitaliga, «Rus savdo-sanoat banki» ingliz kapitaliga bog'liq bo'lgan; faqat «Moskva hisob banki» rus milliy kapitalining sof vakili bo'lgan. Rus-Osiyo banki 1912–1915-yillarda Buxoro temir yo'li konsessiyasi asosida jami 44 ming desyatina yer olgan [3].

1912-yilda paxta firmalari va zavodlarining umumiy bank krediti 50 million 740 ming rublni tashkil etgan bo'lib, shundan 45 million 660 ming rubli (90% dan ortig'i) xususiy banklardan, atigi 5 million 80 ming rubli davlat bankidan berilgan. Shu bilan birga, kredit hamkorliklarining davlat bankidagi krediti bor-yo'g'i 2 million 570 ming rublni (~5%) tashkil etgan [4].

1912-yilda asosiy paxtachilik hududi Farg'ona vodiysida mavjud 223 kredit hamkorligidan atigi 63 tasi (28,2%) joylashgan bo'lib, bu ko'rsatkich paxta ekin maydonining 65,6 foizi aynan shu hududga to'g'ri kelganini hisobga olganda keskin nomutanosiblikni ko'rsatadi. Bu cheklanish moliya vaziri sirkulyari orqali rasmiylashtirilgan bo'lib, unda bank faoliyati yirik muassasalarga qaratilishi lozimligi ta'kidlangan; 1911-yilda Farg'ona harbiy gubernatorining kredit

hamkorliklarini kengaytirish tashabbusi markaz tomonidan mahalliy aholining «bosib olingan» va «savodsiz» ekanligi asosida rad etilgan [5].

1917-yilgi sud statistikasiga ko'ra, 211 xalq sudyasi orqali ro'yxatga olingan qarz bitimlari: tilxat bo'yicha — 140 200 ta, garov bilan — 83 100 ta, ko'chmas mulk garovi bo'yicha — 44 000 ta. Bu ma'lumotlar rasmiy bank tizimidan tashqarida ulkan norasmiy kredit bozori mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. 1909–1912-yillarda o'rtacha yiliga 249 ta yer sotilgan, sotilgan yerning o'rtacha yillik qiymati 372 616 rublni tashkil etgan [6].

MUHOKAMA. Olingan natijalar Turkistondagi bank tizimining rivojlanishi to'rt bosqichli izchil mantiqqa ega bo'lganini ko'rsatadi: (1) vositachilik bosqichi, unda banklar savdo operatsiyalarini kreditlash bilan cheklangan; (2) monopollashuv bosqichi, unda banklar ishlab chiqarish va xomashyo bozorini bevosita nazorat qila boshlagan; (3) institutsional cheklash bosqichi, unda kredit kooperatsiyasi kabi aholi manfaatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tashabbuslar ongli ravishda cheklangan; (4) norasmiy tizimning kengayishi, unda rasmiy bank tizimining cheklanganligi sabab sudxo'rlik-vositachilik tizimi ustuvor kredit manbaiga aylangan.

Xususiy banklarning davlat bankidan besh baravar ko'p kredit berishi va bu kreditning 90 foizdan ortig'i paxta sanoatiga yo'naltirilgani shuni ko'rsatadiki, bank kapitali strategik jihatdan eng yuqori va tezkor daromad keltiruvchi tarmoqlarni tanlagan. Shu bilan birga, kredit kooperatsiyasining Farg'ona vodiysida — aynan paxta ekin maydonining asosiy qismi joylashgan hududda — sun'iy ravishda cheklanishi tasodifiy emas, balki ongli davlat siyosati natijasi bo'lgan: bu tashabbus savdo-sudxo'rlik kapitali manfaatlariga putur yetkazishi mumkinligidan xavotirlanish bilan izohlanadi, chunki xususiy banklar aynan shu kapital bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Bu yerda alohida e'tiborga molik jihat rasmiy va yashirin asoslarning bir-biridan farqlanishidir. Moliya vaziri sirkulyari kredit kooperatsiyasini cheklashni bank resurslarining yirik korxonalarga yo'naltirilishi zarurligi bilan izohlagan bo'lsa-da, Farg'ona harbiy gubernatorining tashabbusi mahalliy aholining «bosib olingan» va «savodsiz» ekanligi asosida rad etilgani shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy qaror ortida mustamlakachilik mafkurasi ham muhim rol o'ynagan. Shu tariqa moliyaviy-institutsional cheklovlar va mustamlakachilik dunyoqarashi bir-birini mustahkamllovchi ikki omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro kapitalning ishtiroki masalasi ham alohida muhokamaga loyiq: Buxorodagi yetti xususiy bank filialining aksariyati nemis yoki ingliz kapitaliga bog'liq bo'lib, faqat bittasi rus milliy kapitalining sof vakili bo'lgani Turkiston bank tizimining Rossiya imperiyasi doirasida ham to'liq mustaqil emasligini, balki kengroq Yevropa moliyaviy tarmog'ining bir bo'lagi sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi. Bu holat mustamlaka iqtisodiyotining ko'p qatlamli tabiatini, ya'ni bir vaqtning o'zida ham Rossiya imperiyasiga, ham xalqaro kapitalga bog'liqligini ochib beradi.

Natijada, rasmiy bank tizimi tomonidan kreditlanmagan mayda dehqon xo'jaliklari muqarrar ravishda norasmiy vositachilar tarmog'iga yo'naltirilgan, bu holat 1917-yilgi sud statistikasidagi yuz minglab bitimlarda o'z aksini topgan. Rasmiy banklardan 12% stavkada olingan mablag'ning norasmiy vositachilar orqali ancha yuqori foizlarda qayta taqsimlanishi shuni ko'rsatadiki, kredit kooperatsiyasining cheklanishi nafaqat institutsional, balki bevosita moliyaviy oqibatlarga ham olib kelgan, mahalliy dehqon xo'jaliklari rasmiy tizimdan chetlashtirilib, ancha og'ir shartlar asosida norasmiy kredit olishga majbur bo'lgan.

XULOSA. Shunday qilib, Turkiston bank tizimi mustaqil iqtisodiy rivojlanish mantig'iga emas, balki mustamlaka boshqaruvining strategik maqsadlariga bo'ysungan holda shakllangan bo'lib, uning asosiy vazifasi mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish emas, balki uni metropoliya manfaatlariga samarali xizmat qiladigan tarzda tashkil etish bo'lgan. Bank kapitalining ikki tarmoqli tuzilishi (davlat banki — rasmiy mavjudlik, xususiy banklar — real nazorat), xalqaro moliyaviy kapitalga bog'liqligi (nemis, ingliz va rus kapitalining aralash ishtiroki) hamda kredit kooperatsiyasining ongli ravishda cheklanishi bir-biriga bog'liq institutsional mexanizmlar sifatida mintqa iqtisodiyotini metropoliya manfaatlariga bo'ysundirishga xizmat qilgan. Qo'qon filiali misolida ko'rilgan mikrodarajadagi operatsion faoliyat (veksel aylanmasi, pochta-telegraf orqali markaz bilan aloqa) va makrodarajadagi statistik ko'rsatkichlar (kredit hajmi, kredit hamkorliklarining geografik taqsimoti, norasmiy kredit bozorining ulkan hajmi) bir-birini to'ldiruvchi ikki tahlil qatlamini tashkil etadi. Ular birgalikda shuni tasdiqlaydiki, bank tizimi nafaqat yuqori imperiya markazi darajasida, balki har bir filial va har bir dehqon xo'jaligi darajasida ham mustamlakachilik iqtisodiy mantig'iga bo'ysundirilgan bo'lib, bu tasodifiy emas, balki izchil va ko'p bosqichli institutsional qarorlar natijasida shakllangan. Ushbu tadqiqot natijalari Turkiston iqtisodiy tarixini o'rganishda bank tizimini alohida institut sifatida emas, balki mustamlaka boshqaruvining kengroq strategiyasi hisoblangan paxta monokulturasini rivojlantirish, xomashyoni metropoliyaga yo'naltirish va mahalliy aholining moliyaviy mustaqilligini cheklash bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Kredit kooperatsiyasi tizimining sun'iy cheklanishi va buning natijasida norasmiy sudxo'rlik tizimining kengayishi masalasi, xususan, mustamlaka davridan keyingi davrda ham mintqa iqtisodiyotiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin bo'lgan jarayon sifatida keyingi tadqiqotlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'ZR MDA. F. I-124, op. 1, d. 1, l. 41.
2. Аминов А., Бабаходжаев А. *Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России*. – Ташкент: Узбекистан, 1966.
3. Юшков К. М. Деятельность банковских кредитных учреждений Российской империи в Средней Азии с 90-х гг. XIX в. по 1914 г. // *Заметки*.
4. Бородин Л. И. *Кредитная система России в XIX веке*. – Москва: РОССПЭН, 2004.
5. O'ZR MDA. F. I-124, op. 1, d. 2, l. 64.
6. Миронов Б. Н. *Экономическая история России XIX–XX вв.* – Санкт-Петербург: Дмитрий Буланин, 2012.